

Mazkur o'quv dasturi dunyoning e'tirof etilgan xalqaro QS va THE reytinglarida nufuzli TOP-300 talikka kirgan quyidagi oliy ta'lim tashkilotlarining ta'lim dasturlari asosida ishlab chiqilgan.

№	OTM nomi	QS	THE	O'quv dasturidagi mavzu nomi	Kiritilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar	Havolalar
1	Moskva Davlat universiteti (Rossiya)	94	107	5-mavzu. Tuproq unumdorligi va almashlab ekish asoslari. Almashlab ekishning tuproq unumdorligiga ta'siri. Almashlab ekishda o'tmishdosh ekinlar.	Севообороты (Алмашлаб екш)	https://soil.msu.ru/attachments/article/4505/ИБ_5%20Земледелие%203++.pdf
				7-mavzu. Yerga ishlov berish haqida umumiy tushuncha. Yerga ishlov berishning umumiy masalalari, maqsadi va vazifalari. Yerga ishlov berish qurollari va yerga mexanikaviy ta'sir etish. Yerni ishlashdagi texnologik jarayonlar.	Задачи обработки почв. Технологические процессы при обработке почв. (Тупроққа ишлов берш масалалари. Тупроққа ишлов бершдәги texnologik jarayonlar)	https://soil.msu.ru/attachments/article/4505/ИБ_5%20Земледелие%203++.pdf
2	University of Florida (AQSH)	215	130	3-mavzu. Agronomiya yo'nalishlari va qonuniyatlari bo'yicha umumiy tushuncha. Dehqonchilik va o'simlikshunoslikdagi asosiy qonuniyatlarni, tamoyillar. O'simliklarning hayot omillari.	Physical processes and properties of soils that influence optimum growth of plants (O'simliklarning optimal o'sishiga ta'sir qiluvchi tuproqning fizik jarayonlari va xususiyatlari)	https://catalog.ufl.edu/UGRD/colleges-schools/UGAGL/SWS_BS/#academiclearningcompacttext
3	Michigan State University (AQSH)	136	16	9-mavzu. Qishloq ho'jaligida sug'orish asoslari. Sug'oriladigan dehqonchilikda tuproq va o'simliklarning suv rejimini boshqarish, mavjud suv resurslaridan oqilona foydalanish, sug'orishning istiqbolli usullari va texnikasidan hamda suvdan foydalanish samaradorligini oshirish.	Water Resources Management (Suv resurslarini boshqarish)	https://reg.msu.edu/AcademicPrograms/ProgramDetail.aspx?PType=UGRD&Program=AQUA/EMBS

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI



"TASDIQLAYMAN"

O'quv ishlari bo'yicha prorektor
professor S.G. Boboyev

2025 yil "18" 08

Ro'yxatga olindi. № BD - 60810400 - 1.12

2025 yil "18" 08

AGRONOMIYA ASOSLARI

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	800000	- Qishloq, o'rmon, baliq xo'jaligi va veterinariya
Ta'lim sohasi:	810000	- Qishloq xo'jaligi
Ta'lim yo'nalishlari:	60810400	- Agronomiya

Fan/modul kodi AGRAB1104		O'quv yili 2024-2025	Semestr 1	ECTS - Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
	AGRONOMIYA ASOSLARI	48	72	120	
2.	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – Qishloq xo'jaligi, xususan agronomiyaning dunyo va mamlakatimiz iqtisodiyotidagi, xalq xo'jaligidagi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyati, insonlar uchun oziq-ovqat, sanoat uchun xom ashyo va chorvachilik uchun yem-xashak, ozuqa bo'ladigan ekinlar va ularni yetishtirish haqidagi, dehqonchilik, tuproq unumdorligi, respublikamiz yer fondi, qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar, ularning hozirgi holati, noqulay iqlim sharoitlari va omillari, agrotadbirlar, o'simlikshunoslik tarmoqlari, bo'lajak agronomlar o'zlashtirishi zarur bo'lgan fanlar, sohadagi olimlarning ilmiy yutuqlari, dunyo qishloq xo'jaligining rivojlanish yo'nalishlari bo'yicha asosiy tushunchalar va bilimlarni shakllantirishdan iborat.</p> <p>Fanning asosiy vazifasi - Ushbu maqsadga erishish uchun talabalarda, mazkur fan bo'yicha nazariy bilimlarni ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llash orqali etkazish, ularda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish kabi vazifalarni bajarishdan iborat.</p> <p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu. Qishloq xo'jaligi haqida umumiy tushuncha va uning dunyo iqtisodiyotiga tutgan o'rni.</p> <p>Qishloq xo'jaligining soha sifatida shakllanishi, rivojlanishi. Bugungi kun qishloq xo'jaligining tarmoqlari, shu jumladan o'simlikchilik kichik tarmoqlari. Jahon mamlakatlarida qishloq xo'jaligining ixtisoslashuvi. Dunyo va mamlakatimiz iqtisodiyotida qishloq xo'jaligining tutgan o'ri.</p> <p>2-mavzu. Qishloq xo'jaligining rivojlanish tarixi.</p> <p>Qishloq xo'jaligining ilmiy asoslari. Agronomiyaning rivojlanish tarixi. Dehqonchilikning ibtidoiy tizimlari. Tarixiy davrlarda mamlakatimizda qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish tarixi. Xalq seleksiyasi yutuqlari, ekinlarning mahalliy navlari yaratilishi. Sohaning rivojlanishida olimlarning tutgan o'ri.</p>				

3-mavzu. Agronomiya yo'nalishlari va qonuniyatlari bo'yicha umumiy tushuncha.

Agronomiyaning yo'nalishlari: dalachilik, o'simlikshunoslik, yem-xashak yetishtirish, seleksiya va urug'chilik, o'simliklarni himoya qilish, agrokimyo, sabzavotchilik va polizchilik, mevachilik va manzarali bog'dorchilik, gulchilik va ko'chatchilik, issiqxonachilik, dorivor o'simliklar yetishtirish, yaylovshunoslik va h.k. Dehqonchilik va o'simlikshunoslikdagi asosiy qonuniyatlar, tamoyillar.

4-mavzu. Qishloq xo'jaligi muammolari va ularning kelib chiqish sabablari.

Qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlari. Qishloq xo'jaligi tarmoqlarning mavsumiyligi. Qishloq xo'jaligidagi muammolari: yerlarning degradatsiyasi, sho'rlanishi, cho'llanishi, tuz va qumlarning ko'chishi, tabiiy maydonlarda o'simlik qoplaminig siyraklanishi, qurg'oqchilik, global isish, muzliklarning erib ketishi va suv tanqisligi, garmsel shamollarning kuchayishi, qishning quruq va iliq kelishi va h.k. O'simliklar o'sish-rivojlanishiga, hosilga ta'sir etuvchi omillar.

5-mavzu. Tuproq unumdorligi va almashlab ekish asoslari.

Tuproq unumdorligi haqida tushuncha. Tabiiy, sun'iy, potentsial va samarali unumdorlik tushunchalari. Tuproq unumdorligini oshirish usullari. Tuproq madaniyligi. Tuproq madaniyligining ko'rsatkichlari. Almashlab ekishning ahamiyati. Almashlab ekishning tuproq unumdorligiga ta'siri. Almashlab ekishda o'tmishdosh ekinlar.

6-mavzu. Begona o'tlar haqida umumiy tushuncha

Begona o'tlar haqida tushuncha, ularning dehqonchilikka keltiradigan zarari va biologik xususiyatlari. Serurug'ligi, urug'lar unuvchanligini uzoq yillar davomida saqlanishi. Urug'larni har xil muddatlarda unib chiqishi. Moslashgan begona o'tlar. Begona o'tlarning ko'payishi va tarqalish yo'llari.

7-mavzu. Yerga ishlov berish haqida umumiy tushuncha

Yerga ishlov berishning umumiy masalalari, maqsadi va vazifalari. Yerga ishlov berish qurollari va yerga mexanikaviy ta'sir etish. Yerni ishlashdagi texnologik jarayonlar: qatlarni ag'darish, yumshatish, aralashtirish, zichlash, tekislash, egat, cheklar olish. Yerni asosiy ishlash qurollari. Yerni ishlash sifatiga ta'sir etuvchi omillar. Tuproqning texnologik xususiyatlari. Yerni haydash muddati, chuqurligi va agregat tezligi.

8-mavzu. Qishloq xo'jalik ekinlari va ularning tasniflari

O'simliklarning umumiy tasnifi. Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan ekinlar va ularning guruhlariga bo'linishi. Dala ekinlari va ularning guruhlari.

O'simliklarning kelib chiqish markazlari.

9-mavzu. Qishloq ho'jaligida sug'orish asoslari

Sug'oriladigan dehqonchilikda tuproq va o'simliklarning suv rejimini boshqarish, mavjud suv resurslaridan oqilona foydalanish, sug'orishning istiqbolli usullari va texnikasidan hamda suvdan foydalanish samaradorligini oshirish, sug'orishni tashkil etish va amalga oshirish, sug'orish tizimlarini sug'orishni tashkil etish va ulardan samarali foydalanish, tizimni takomillashtirish, mexanizatsiyalash va avtomatlash, ularni qayta qurish va faoliyatini yaxshilash, suv o'lchash va taqsimlash, tizimda suv isrofgarchiligiga qarshi kurash

10-mavzu. Yaylovlar va yem-xashak yetishtirish asoslari

Yem-xashak yetishtirish fan va soha sifatida. Yem-xashak yetishtirishning o'ziga xos xususiyatlari va vazifalari. Yaylovlarning ahamiyati, ularning tasniflanishi. Dala va yaylovlarda yetishtiriladigan asosiy ozuqa turlari.

11 -mavzu. Agronomiyada zamonaviy texnologiyalarning asoslari

Qishloq xo'jaligining rivojlanishida zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati. Hozirgi zamon texnologiyalarining biologik asoslari. Hozirgi zamon texnologiyalarining agrotexnik va tashkiliy asoslari.

12-mavzu. Zamonaviy agronomiya fanlari va rivojlanish istiqbollari

Zamonaviy agronomiya fanlarining shakllanish asoslari, klassik fanlardan farqlari. Organik dehqonchilik, suv tejoychi texnologiyalar, yaylovlar melioratsiyasi, lalmikor dehqonchilik, mintaqaviy dehqonchilik tizimlari, paxtachilik, donchilik, sholichilik, soyachilik, moyli ekinlar, texnik ekinlar, dala ekinlarini yetishtirishda innovatsion texnologiyalar, noan'anaviy ekinlarni yetishtirish texnologiyasi va boshqa fanlarning maqsadi, vazifalari, rivojlanish istiqbollari.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Tuproqqa islov berish sifatini aniqlash.
2. Agrotexnik tadbirlarni boshqarish
3. O'simliklarning tashqi muhit omillariga talabi
4. O'simliklarni o'sish va rivojlanish davrlari
5. Almashlab ekish turlari
6. Begona o'tlarni tasniflash
7. Yerga ishlov berish usullari
8. O'simliklar umumiy morfologiyasi
9. Ekinlarning suvga bo'lgan talabi va sug'orish usullari
10. Ozuqa turlari va tasnifi
11. Agronomiyada zamonaviy texnologiyalarning ko'rsatkichlari.
12. Urug' va ekinlarni ekishga tayyorlash

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Respublikamiz dehqonchiligining hozirgi holati, muammolar va hal qilish yo'llari
2. Asosiy qishloq xo'jaligi ekinlarining yetishtirish tarixi
3. Tuproq unumdorligi va strukturasi yaxshilashga qaratilgan tadbirlar (almashlab ekishda dukkakli ekinlar misolida)
4. Xorijiy qishloq xo'jaligi texnologiyalarining afzalligi va kamchiligi.
5. O'zbekistonda yangi kirib kelayotgan ekinlar va ularning ahamiyati
6. Sug'oriladigan yerlarda o'sadigan begona o'tlar
7. Yerga asosiy ishlov berish usullarining tuproq xususiyatlari va o'simliklarni o'sishi hamda rivojlanishiga ta'siri.
8. Agronomiyada resurstejovchi texnologiyalar va uning ahamiyati.
9. Mustaqillik yillarida asosiy qishloq xo'jaligi ekinlarining yetishtirish holati tahlili.
10. Organik dehqonchilik va uning ahamiyati
11. Suv tejovchi texnika va texnologiyalar.
12. O'simliklarning o'sishi va rivojlanishiga tashqi muhitning ta'siri

3. V. V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalari)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

Fanni o'zlashtirish natijasida bakalavr: qishloq xo'jalik haqida, fanning yutuqlari, ushbu fanning nazariy va amaliy tomonlarini, uni qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida muhimligini, progressiv dehqonchilik va yerlarning melioratsiyalash, dala ekinlarining biologiyasini shakllanish sharoiti, o'simliklarning kelib chiqishi, ekinlarni fotosintetik faoliyati, dala ekinlarni intensiv usulda yetishtirish to'g'risida, fan va ilg'or ishlab chiqarish yutuqlarini joriy etish orqali samaradorligini baholash haqida *tasavvurga ega bo'lishi*,

-qishloq xo'jaligida mahsulotlari ishlab chiqarishda agronomiya asoslari fanining o'rini, tuproq unumdorligi va uni oshirish omillarini, melioratsiya erishgan yutuqlardan foydalanib yerlarning yaxshilash va ekinlar yetishtirishning innovatsion texnologiyalarning o'rini;

-dala ekinlarining xalq xo'jaligidagi ahamiyati, dala ekinlarni yetishtirishning bugungi kun xolati va istiqbollari, ularni parvarishlash va yuqori hosil yetishtirish agrotexnologiyasi *bilishi va ulardan foydalana olishi*;

-rivojlanib borayotgan dehqonchilik tizimida yuqori va sifatli hosil yetishtirishda dehqonchilik va melioratsiya yutuqlarini, texnologiyalarni va ularni tatbiq etish;

-ishlab chiqarish sharoitida zamonaviy dehqonchilik va yerlarning


	<p>meliorativ holatini yaxshilashda melioratsiya texnologiyalarni qo'llay olish;</p> <ul style="list-style-type: none"> -dehqonchilik va melioratsiya bo'yicha, ekinlarni sug'orish va sho'rlangan, degradatsiyaga uchragan yerlarni yaxshilash, yuqori hosil olishda jahon tajribasini qo'llash bo'yicha amaliy ko'nikmalar shakllantirish; -dehqonchilik yuritishda mavjud muammolarni asoslash va ularni ijobiy hal eta olish; -dala ekinlarini ekish muddati, meyorlari, sug'orish usullari va meyorlarini aniqlash, qishloq xo'jalik mashinalaridan, biologik va kimyoviy preparatlardan foydalanish va ularni qo'llay olish hamda hosilni yig'ishtirib olish yuzasidan ko'nikmalariga ega bulishi kerak.
4.	<p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaolkeys-stadilar; • seminarlar (mantiqiyfiklash, tezkorsavol-javoblar); • guruhlardaishlash; • taqdimotlarniqilish; • individualloyihalar; • jamoabo'libishlashva himoya qilish uchun loyihalar.
5.	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish,i yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p>
6.	<p>Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Arya R.L. Fundamentals of Agronomy. Textbook. Scientific publishers . India, 2020. P-220. 2. Atabayeva X., Xudayqulov J. O'simlikshunoslik. Darslik. - T.: "Fan va texnologiya", 2018. - 407 b. 3. Атабаева Х., Умарова Н.– Растениеводство. Учебник. Т.: - «Тахририят-нашриёт» ТашГАУ, 2016. - 380 стр. 4. Atabayeva X.N. va boshqalar. Yem-xashak yetishtirish. O'quv qo'llanma. T.: ToshDAU "Tahririyat-nashriyot" bo'limi, 2013. - 166 b. 5. Azimboev S. Dehqonchilik tuproqshunoslik va agrokimyo asoslari. Darslik. T.: Iqtisod-moliya, 2006.- 54-66 b. 6. Norqulov U., Axmurzayev Sh., Saimbetov A. Dehqonchilik va melioratsiya. Darslik. Toshkent-2024. "NIF MASH" nashriyoti. 7. To'xtashev B.B., Akmurzaev Sh. Dehqonchilik. Darslik. 20 bosma.tabog'. Toshkent-2021y. FANZIYOSI-nashriyoti.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Artukmetov Z. Ekinlarni sug'orish asoslari va sug'orish tizimlaridan foydalanish. Darslik. T.: ToshDAU nashriyot tahrir bo'limi, 2009. – 150-158 b.
2. Artukmetov Z., X. Atabayeva Agronomiya asoslari va yem-xashak yetishtirish. Darslik. T.: Uzinkomtsent, 2003.- 115-125 b.
3. Atabayeva X., Umarov Z. O'simlikshunoslik. O'quv qo'llanma. T.: "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi", 2004. - 228 b.
4. Haydarov Q., Mahmudov M.– "Yaylovshunoslik". Darslik. Toshkent. 2010 y
5. Nazarov N, Mirzajonov K, Ibragimov O, Isaev S Dehqonchilikning tejamkor texnologiyalari. O'quv qo'llanma. T. 2014 yil 179 bet.
6. Mirzayev O.- Yem-xashak yetishtirish. Darslik. T.: Yangi nashr, 2014. 384b.
7. Mo'minov K., Azimboev S.A., Sanaqulov A., Berdiboev E., Kenjaev Yu. Dehqonchilik ilmiy izlanish asoslari bilan. O'quv qo'llanma. – T.: "Turon-iqbol", 2014. – 240 b.
8. Oripov R., Xalilov N. O'simlikshunoslik». O'quv qo'llanma. Samarqand, 2007.
9. Ramazonov O., Yusufbekov O.. Tuproqshunoslik va dehqonchilik. Darslik. T.: Sharq, 2003.- 73-79 b.
10. Xoliqov B. Yangi almashlab ekish tizimlari va tuproq unumdorligi. Noshirlik yog'dusi nashriyoti. O'quv qo'llanma. T. 2010 yil 120 bet.

Axborot manbaalari

1. www.gov.uz. – O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali
2. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
3. www.edu.uz.
4. www.agro.uz
5. <http://www.tsau.uz>

7. Fanning o'quv dasturi Toshkent davlat agrar universiteti Ilmiy Kengashining 202 6 yil "18"  dagi 1 -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

8. Fan/modul uchun ma'sullar:

- Sh.I.Axmurzayev – ToshDAU "Dehqonchilik va melioratsiya" kafedrasi mudiri, dotsent.
- Ch.A.Ulug'ov – ToshDAU "O'simlikshunoslik va moyli ekinlar" kafedrasi mudiri, dotsent.

9. Taqrizchilar:

- D.Qodirova – ToshDAU "Agrokimyo va tuproqshunoslik" kafedrasi mudiri, professor.
- B.Azizov – ToshDAU "O'simlikshunoslik va moyli ekinlar" kafedrasi professori.